

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA HOLAT FE'LLARI XUSUSIDA NAZARIY QARASHLAR

Ro'zmetov Hamid

UrDU PhD

Matkarimova Ozoda Rustamovna

UrDU Lingvistika (ingliz tili) magistranti

“Kognitiv” atamasining asosida “bilish”, “idrok etish” degan ma’nolar yotadi (ingliz tilida “cognitive” rus tilida “poznaveatelny”). Sh.Safarov fikricha, “Bilim olish va saqlash, uni amalda qo’llash va uzatish manbai va, nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo’lgan til tizimi kognitiv tahlil obyekti ekanligiga hech qanday shubha yo’q. Bilimning mavjudligi tilning mavjudligidan. Tilning o’zi esa kognitiv tizimning faoliyati mahsulidir, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi.” Kognitologiya tafakkur haqidagi fan bo’lib, uning tayanch nuqtasi tilshunoslikdir. So’zsiz, lingvistik tahlil kognitiv tahlilning bir turi, uning ma’lum bir ko’rinishda namoyon bo’lishidir. Kognitiv tilshunoslik fani XX asrning ikkinchi yarmida axborot texnologiyalari taraqqiyoti oqibatida yuzaga kelgan “sun’iy intellekt” tizimi vositalariga oid mushohada, savollarga javob izlovchi fan sifatida paydo bo’ldi. Bu fan insonning bilish faoliyati bilan shug’ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Konsepsiyani tahlil qilishda¹¹ (J. Lakoff, M. Jonson, Langaker, Djekendorf R. va boshqalar) hamda (Yu.S. Stepanov, A. P. Babushkin, Yu.D. Apresyan, S. X. Lyapin, V. I. Karasik, D. O. Dobrovolskiy, N. N. Boldyrev, I. A. Sternin, E. S. Kubryakova, Yu. N. Karaulov va boshqalar) kabi olimlarning ilmiy ishlari tayanch vazifasini o’taydi.

O’zbek tilidagi holat fe’llari obyektiv asosiga ko’ra tabiat va jamiyat yagi, o’simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog’liq muayyan jarayonlarni o’z ichiga oladi. Demak, holat fe’llari moddiy asosiga (ob’ektiga) ko’ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o’ziga “joylashtirishi” bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe’l leksemalardan ajralib turadi. Holatning realligi, ob’ektivligi, uning muayyan shaxs yoki predmetda “to’planishi”, unda “moddiylashishi” bilan bog’liq ekan, demak, logik sub’ektning mavjudligi faqat uning absolyut harakati bilan emas, balki uning “absolyut” holati bilan ham o’lchanadi. Aniqrog’i, holat ham materiyaning yashash formasidir.¹²

Ammo holat nisbiyligi bilan, harakat esa absolyutligi bilan ajralib turadi. Fe’l sememasidagi logiksub’ekt holati qanchalik davom etmasin, qanchalik real, turlicha,

¹¹ Абдуллаева Марҳабо Раҳмонкуловна. (2021). Инглиз тилидан ўзбек тилига таржима жараёни ва унинг моҳияти хусусида. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 2(2), 297-306. Retrieved from <https://summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/641>

¹² Eyler, J. Reaction: Linking Service and Learning-Linking Students and Communities// Journal of Social Issues 58, 2002. – pp. 517-524.

“perspektivali” bo’lmasin, u nisbiydir, uning nisbiyligi absolyutdir. Chunki har qanday holat asosida harakat mavjuddir. Ammo bu harakat ko’zga real

tashlanmasligi, yashirinligi bilan xarakterlanadi. Demak, holat fe’llarida ifodalangan holat yuz bergan holat akti, holat o’zgarishi logik sub’ektning ichki, passiv harakatidan sodir bo’ladi, harakat natijasi sanaladi. Tilshunos Sh.Balli ta’kidlaganidek, “holat biz tomondan bevosita harakat ketidan ergashuvchi sifatida idrok qilinadi”. Aytilganlardan kelib chiqib, holat fe’lida reallashgan holat harakatga nisbatan passiv akt bo’lsa-da, uni ham protsess sifatida tushunish logik-filosofik to’g’ri bo’ladi. Shunga ko’ra manbalarda “fe’l mustaqil so’z turkumi bo’lib, predmetning harakat va holatini irotsess sifatida ifodalovchi so’zlarni birlashtiradi”, deyiladi. Obyektiv borliqdagi narsa-predmetlarga, shaxsga, hayvonga xos turlicha holatlarni ifodalovchi holat fe’llari nutqda aktiv ishlatilishi va murakkab semantik strukturasi bilan ajralib turadi. Uzbek tilidagi holat fe’llari arxisemadan boshqa differentsial semalari bilan ham xarakterlanadi. Bu tabiiy, mantiqiy. Chunki holat fe’llari muayyan differentsial semalariga ko’ra nutqda konkret denotativ ma’noga, umumiylikdan nisbiy ajralishga ega bo’ladi. Differentsial semalar holat fe’llarining avtonomligini ko’rsatuvchi semantik belgi sifatida xizmat qiladi. Ularda leksema sememasining o’ziga xos belgisi, emotsional-ekspressiv ottenkasi, nutqiy xoslanishi aks etadi. O’zbek tilidagi holat fe’llari arxisema va differentsial semadan boshqa semaga ham egadir. Bu sema “holat” arxisemali va muayyan differentsial semali holat fe’llarinnng ichki semantik gruppalari uchun umumiydir.

Ingliz tilida holat fe’llarining struktur-semantik, leksik, morfologik belgilar va qismlarning o’zaro bog’lanish xarakteriga ko’ra tasnifi keltirildi. Oldin yaratilgan tasniflarga tayangan holda ishda holat fe’llarining birgina qirrasini ko’rsatuvchi - qismlari tuzilishi jihatdan tasnifi berildi. Holat fe’llarining talqini va tasnifi muammosi ancha qiziqarli masala.

Olimlarimiz bizga qoldirgan meroslaridan bu masala o’zining uzoq tarixiga egaligini bilamiz. Holat fe’llarining haqida dastlabki ma’lumotlar XIX asrning 20-yillarida chop etilgan asarlarda berilgan. Ammo bu ma’lumotlar mukammal emas edi. 1940-yillardan keyingina holat fe’llarini muammosi olimlar diqqatida bo’ldi. Holat fe’llarini turli tayanch nuqtalari asosida tasniflangan. Keltirilgan hamma tasnif (o’zbek va ingliz tillarida berilgan)larda ham sodda gap asosiga ega olingan. Shuning uchun tasniflar ko’p bo’lsada, ular o’xshashdir. Vaholanki, har bir til o’z qonun qoidalariga ega bu qonun qoidalar til imkoniyatlaridan kelib chiqqan. XIX asrning 80-yillaridan boshlab,¹³ 1940-50 yillarda qo’shma gapni belgilash mezoni bobida mavjud bo’lgan ikki asosdan ikkinchisi- yo’l-yo’lakay va qator mustasnolar bilan olg’a surilgan kesim asosiga tayangan holda har bir sintaktik birlikka tizimga yondashildi.

¹³ Abdullayeva, Marxabo Raxmonkulovna. "Fe’liy frazemalarni o’zbek tilidagi muqobil varianti guruhlanishi (agata kristi asarlari tarjimalari misolida)" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 8, 2021, pp. 227-231.

Formal-funksional talqinda holat fe'llari tasnifi uning ma'lum bir qirrasida tasnif etilgan. Oldin yaratilgan tasniflarga tayangan holda ishda tafakkur fe'llarining birgina qirrasini ko'rsatuvchi – qismlari tuzilishi jihatidan tasnifi berildi. Ingliz tilida qo'llangan holat fe'llarining mohiyatan boshqa tillarda qo'llangan tafakkur fe'llaridan farq qilmaydi.

Holat fe'llaridan foydalanishda badiiy uslubda imkoniyat keng. E.Xemingueyning "Alvido Qurol" asarida ham tafakkur fe'llarining qo'llanish doirasi tor emas. Bu asarda tafakkur fe'llarining teng va tobe tarkibli tipik turlari keng qo'llangan. Ayniqsa, keng bog'lovchili tafakkur fe'llarining kelishi diqqatga sazovor. Muallif ulardan unumli va juda o'rinli foydalangan. Bog'langan tafakkur fe'llar matn yaxlitligi asosida o'zidan keyin kelgan alohida gap sifatida qo'llangan sodda gap bilan birgalikda, ergashgan qo'shma gap tarzida o'g'irilishi ham diqqatga sazovordir. Ingliz tilida berilgan payt ergash gap, bog'langan tafakkur fe'li tarzida tarjima qilingani, o'rin ergash gapning bir tarkibli shaxsi noma'lum gap tarzida, kesim ergash gap holat ergash gap tarzida, ega ergash gap o'zbek tilida sodda gap tarzida ifodalangani ham e'tibordan chetda qolmadi. Holat fe'llarining tarkibiy qismlari son jihatdan har-xil bo'lib, uch qismli gaplar ko'proq qo'llangan.

Ingliz tilida qo'llangan holat fe'llari boshqa tillarda qo'llangan holat fe'llarining mohiyatan farq qilmaydi. Holat fe'llaridan foydalanishda badiiy uslubda imkoniyat doirasi tor emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаева Мархабо Рахмонкуловна. (2021). Инглиз тилидан ўзбек тилига таржима жараёни ва унинг мохияти хусусида. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 2(2), 297-306. Retrieved from <https://summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/641>
2. Eyler, J. Reection: Linking Service and Learning-Linking Students and Communities// Journal of Social Issues 58, 2002. – pp. 517-524.
3. Abdullayeva, Marxabo Raxmonkulovna . "Fe'liy frazemalarni o'zbek tilidagi muqobil varianti guruhlanishi (agata kristi asarlari tarjimalari misolida)" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 8, 2021, pp. 227-231.